ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi: milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O'ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 94

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma'no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe'llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O'G'LI
«Devonu lug'ati-t-turk» asaridagi she'riy uzindilar badiiyati 116

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 123

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O'G'LI
Jadid dramaturgiyasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari 127

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR'AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o'zaro aloqadorligining estetik talqini 132

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 135

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 139

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 142

TA'LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog'lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 145

Resume. The article analyses the age factor determining lexical choice in Uzbek dialects from a sociolinguistic perspective. Field materials from the Samarkand, Jizzakh, Kashkadarya and Surxandarya regions reveal distinct lexical strata in the speech of three age groups: archaic vocabulary and formulaic expressions in the older generation, mixed code in the middle generation, and jargon with metaphorical renewal in the younger generation. The study demonstrates that three generations of a single community synchronically represent three historical stages of the dialect, establishing the age factor as an independent parameter for describing the dialectal linguistic personality.

Резюме. В статье анализируется возрастной фактор, определяющий лексический выбор в узбекских говорах, с социолингвистической точки зрения. Полевые материалы из Самаркандской, Джизакской, Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей выявляют различные лексические пласты в речи трёх возрастных групп: архаичная лексика и формульные выражения у старшего поколения, смешанный код у среднего, жаргон и метафорическое обновление у молодого. Исследование обосновывает, что три поколения одного сообщества синхронно представляют три исторических этапа развития говора, что позволяет определить возрастной фактор как самостоятельный параметр описания диалектной языковой личности.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

OKSYUMORONNING SINTAKTIK-STILISTIK VA LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

(Shavkat Rahmon she'riyati misolida)

Saminov Abdumalik Inomjonovich,
Farg'ona davlat unversiteti
tilshunoslik kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Insonning nutqiy faoliyati barcha ijtimoiy sohalarda lisoniy vositalarni tanlash va qo'llash imkoniyatlarining rang-barangligi bilan xarakterlanadi. Umumxalq tili doirasida mavjud bo'lgan leksik, grammatik va sintaktik vositalarning muayyan maqsadlar asosida tanlanilishi nutqda xilma-xil funksional uslublarning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Nutqning shakllanishida ishtirok etadigan leksik vositalarining o'zaro birikishi, eng avvalo, muayyan sintaktik qonun-qoidalarga bo'ysungan holda yuzga chiqadi. Biroq, til jonli va harakatdagi sistema sifatida faqatgina qotib qolgan qat'iy qoliplardan iborat emas. Bu haqida X.Abdurahmonov va N.Mahmudov kabi mashhur tilshunos olimlar «So'z estetikasi» asarida ta'kidlab o'tganidek, «So'zlarni to'g'ri qo'llash uchun ularning konkret ma'nolarinigina bilishning o'zi yetarli emas»[1]. Badiiy matnda muallif nutqining induvidualligi eng yuqori darajaga ko'tariladi. Ijodkor o'z nutqi orqali kitobxon ruhiyatiga yanada kuchliroq ta'sir ko'rsatish, nutqning o'ziga xos emotsional-ekspressiv bo'yog'ini oshirish uchun so'zlarning o'z leksik ma'nosidan boshqa, tubdan farq qiluvchi ko'chma ma'nolarda qo'llash hamda sintaktik jihatdan esa anomal, g'ayriodatiy konstruksiyalar tuzish uchun imkoniyatlarini to'lalaigicha qo'llaydi.

Badiiy uslubda adresant va adresat o'rtasidagi o'ziga xos estetik muloqotni ta'minlovchi, an'anaviy man-

[1] Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981.

tiqiy qoliplardan chekinish orqali o'zgacha semantika, o'zining fikrini o'quvchiga yangicha yetkazish usulini yaratuvchi sintaktik-stilistik vositalardan foydalanadi. Bunday sintaktik-stilistik vositalardan biri **oksyumorondir**. Bu haqida Aristotel asarida va boshqa manbalarda keltirilishicha, «Oksyumoron» termini dastlab «grekcha – oxymoron» sifatida Maurus Servius Honoratusda (taxminan eramizdan avvalgi 400 yilda) keltirilgan[1], Oksyumoron yunon tildan tarjima qilinganda, «aqlli ahmoq», «zakiy nodon» degan ma'nolarni anglatadi. Oksyumoron so'zining struktur-semantik mohiyatiga nazar solinadigan bo'lsa, ushbu leksemaning o'zi ham bu hodisaga lisoniy dalil bo'la oladi, chunki oksyumoron yunoncha «oxsús, ózus – o'tkir, keskin, uchli (ijobiy ma'nodagi leksema)», «moros – zerikarli, ahmoq (salbiy ma'nodagi leksema)»[2] leksik ma'noli so'zlarning birikishidan yuzaga chiqqan.

Demak, oksyumoron (yunoncha *oxymoron* – «aqllilik bilan aytilgan ahmoqona gap, zakiy nodon») – mantiqan bir-birini inkor etuvchi, zid tushunchalarni ifodalovchi tushuncha hamda so'zlarning birikuvidan hosil bo'lgan sintaktik konstruksiyadir. Shunday ekan, oksyumoronning lisoniy tabiati, sintaktik aloqa imkoniyatlari va ularning lingvopoetik funksiyalarini badiiy matnda to'laligicha namoyon qiladi.

O'zbek tilshunosligida g'ayriodatiy birikmalar, shuningdek, aynan oksyumoron hodisasi bir qator olimlar tomonidan badiiy nutqning ekspressiv imkoniyatlarini ta'minlovchi muhim uslubiy vosita sifatida tadqiq etilgan. Xususan, X.Abdurahmonov va N.Mahmudovlarning «So'z estetikasi» asarida g'ayriodatiy birikmalar badiiy tafakkurning mahsuli sifatida talqin qilinadi. Ushbu mualliflarning ta'kidlashicha, badiiy asar ijodkori voqelikning bevosita mohiyatini emas, balki uning estetik jihatdan mukammal ifodasini yaratishga intiladi. Shu maqsadda tilning yangi imkoniyatlarini izlaydi va o'zaro bog'lanishi «taqiqlangan» so'zlarni biriktirish orqali ekspressivlik, emotsionallik hamda o'ziga xos ma'no nozikliklarini yuzaga chiqaradi. Bunday birliklar shartli ravishda g'ayriodatiy birikmalar deb nomlanadi[3].

Tadqiqotchilar g'ayriodatiy birikmalarning tarixiylik tabiatiga ham e'tibor qaratadilar. Ularning fikricha, bunday birliklar dastlab yangilik va noodatiylik belgilarini saqlagan holda yuqori ekspressivlik kasb etadi. Biroq vaqt o'tishi bilan ular xalq tilida faol qo'llanib, odatiy birikmalarga aylanishi va dastlabki obrazlilik xususiyatini qisman yo'qotishi mumkin. Masalan, *qattiq gap, shirin uyqu, shirin xotira, achchiq tashvish* kabi birikmalar bugungi kunda til egalari tomonidan tabiiy qabul qilinadi[4].

Shu bilan birga «So'z estetikasi» asarida ma'nolari o'zaro zid bo'lgan leksemalarning birikishi natijasida yuzaga keladigan yuqori darajadagi ekspressiv birliklar ham alohida ko'rib chiqilib, ular oksyumoron sifatida baholanadi[5]. Demak, mazkur yondashuvda oksyumoron g'ayriodatiy birikmalarning maxsus ko'rinishi sifatida talqin etiladi. Mualliflar g'ayriodatiy birikmalarda kuzatiladigan semantik mavhumlashishi va nomoddiylashuv jarayonlari natijasida yuzaga keladigan ekspressiv-emotsional ta'sirning ko'pincha individual-uslubiy xarakter kasb etishini ham ta'kidlaydilar[6].

A.Nurmonov oksyumoronning shakllanishida leksemalar o'rtasidagi semantik muvofiqlik masalasiga alohida urg'u beradi. Olimning fikricha, sintagmatik munosabatga kirishayotgan birliklar o'rtasida semik uyg'unlik, muvofiqlik bo'lmasa, noodatiy bog'lanish yuzaga keladi va bu hodisa oksyumoron sifatida namoyon bo'ladi. Olim oksyumoronlarni adib individual nutqining mahsuli, obrazlilik va ta'sirchanlikni kuchaytiruvchi vosita sifatida baholab, *shirin o'lim, yashil sabo, qizil qor, yalpizga suyanmoq, kiprikka o'tirmoq* kabi misollarni keltiradi[7]. Ushbu yondashuvda oksyumoron tushunchasi keng talqin qilinib, semantik jihatdan mos kelmaydigan birliklarning birikishi asosiy mezon sifatida belgilanadi.

M.Yo'ldoshev esa oksyumoron hodisasining terminologik va nazariy talqinlariga e'tibor qaratadi. Olimning qayd etishicha, adabiyotlarda bu hodisa «okkazional birikmalar», «noodatiy birikmalar» yoki «g'ayriodatiy birikmalar» nomlari bilan ham yuritiladi[8]. Tadqiqotchi oksyumoronni mazmunan bir-birini inkor etuvchi tushunchalarning birikishi sifatida izohlaydi va uni antitezaning bir ko'rinishi deb baholaydi. *Sokin hayqiriq, otashin muz, yong'inli daryo, oppoq tun, so'zsiz suhbat* kabi misollar ushbu hodisaning badiiy-estetik imkoniyatlarini namoyon etadi[9]. Shu bilan birga, olim istalgan qarama-qarshi ma'noli so'zlarning oddiy birikishi oksyumoron hosil qilmasligini, bunday birliklar yozuvchining badiiy tafakkuri mahsuli ekanligini alohida ta'kidlaydi.

[1] https://books.google.co.uz/books?id=F5UDDgAAQBAJ&pg=PA143&redir_esc=y#v=onepage&q&f=false

[2] https://en.wikipedia.org/wiki/Oxymoron#cite_note-4: "oxymoron |accessdate 26 February 2013". Oxford English Dictionary.

[3] Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981.

[4] Абдураҳмонов Ш. Ўзбек бадиий нутқида кулги қўзғатувчи лисоний воситалар: Фил.фан.ном. дисс. Автореф. – Тошкент, 1997. – 23 б.

[5] Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981.

[6] Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981.

[7] Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли 3-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 156 б.

[8] Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан. док... дисс. – Тошкент, 2009. – 313 б.

[9] Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан. док... дисс. – Тошкент, 2009. – 313 б.

Tilshunos olim S.Karimov ham oksyumoronni antitezaning bir ko'rinishi sifatida talqin qiladi[1]. Biroq antiteza va oksyumoron o'rtasidagi umumiylik faqat kontrastlik tamoyiliga asoslanadi. Antitezada qarama-qarshilik ko'proq sintaktik va kompozitsion sathda namoyon bo'lsa, oksyumoronda mazkur zidlik sintaktik jihatdangina ko'rinadi.

Sh.Abdurahmonov oksyumoron hodisasiga matn lingvistikasi nuqtayi nazaridan yondashadi. Uning fikricha, oksyumoron matn birliklarida ifodalangan axborotlarning mazmunan bir-birini inkor etishi natijasida yuzaga keladi[2]. Ushbu yondashuv oksyumoronning nafaqat so'z birikmasi doirasida, balki gaplar va yirik matn birliklari o'rtasidagi semantik qarama-qarshilik asosida ham shakllanishi mumkinligini ko'rsatadi.

M.Qurbonova va M.Yo'ldoshevlar oksyumoronga, avvalo, estetik hodisa sifatida yondashish zarurligini ta'kidlaydilar[3]. Ularning fikricha, oksyumoronning mohiyati mantiqiy nomuvofiqlikda emas, balki badiiy-estetik ta'sirni kuchaytirishga xizmat qiluvchi uslubiy imkoniyatlarda namoyon bo'ladi. Xuddi shunday qarashlar H.Do'smatov va N.Bazarbayeva tadqiqotlarida ham uchraydi. Ular oksyumoronni inson ruhiy olamidagi murakkab va ziddiyatli holatlarning badiiy ifodasi sifatida baholab, uning ekspressivlik va emotsionallikni kuchaytiruvchi estetik vosita ekanligini qayd etadilar.

Shunday qilib, o'zbek tilshunosligida oksyumoron va g'ayriodatiy birikmalar masalasi turli nazariy yondashuvlar asosida o'rganilgan bo'lsa-da, aksariyat tadqiqotchilar ularni badiiy nutqning obrazlilik, ekspressivlik va estetik ta'sirchanligini ta'minlovchi muhim uslubiy vositalardan biri sifatida e'tirof etadilar.

Demak, oksyumoron usulining yuzaga chiqishida mantiqsizlikka asoslanganlik uning yetakchi nazariy asosi hisoblanadi. Lingvistik nuqtayi nazardan, bu hodisa so'zlarning valentlik (birikuvchanlik) imkoniyatlarini ataylab kengaytirish orqali yuzaga keladi. Oddiy normal nutqda komponentlar orasida semantik muvofiqlik talab etilsa, badiiy uslubda aynan semantik nomuvofiqlik fikr ifodalashning asosiy quroliga aylanadi.

Oksyumoron ijodkorning an'anaviy lisoniy dalillar va tasvir vositalaridan zerikishi hamda tilda yangi shakl orqali yangicha mazmun bayon qilishga intilishidan tug'iladi. Masalan, tilda tez-tez takrorlanib, siyqasi chiqqan tavtologik takrorlar (bir fikrni o'xshash so'zlar bilan ortiqcha takrorlash) o'quvchida estetik zerikish uyg'otishi mumkin. Oksyumoron birikmalar (*qayg'uli shodlik, qora chaqmoq, jodugar navo*) esa nutq birligiga e'tiborni darhol tortadi, chunki ular inson miyasidagi tayyor mantiqiy zanjirni «buzib», uni tahlil qilishga va matn ostida joylashgan o'ziga xos ma'nosini qidirishga majbur qiladi.

Oksyumoron yaratishda muallif o'quvchining ushbu zidlik ortiga yashiringan majoziy ma'noni tushunib yeta olish layoqati va kognitiv salohiyatini oldindan hisobga oladi. Shu bois, ushbu vosita lingvopoetikaning eng intellektual figuralaridan biri sanaladi. Ushbu maqolada she'riyatida qo'llanilgan dalillar asosida uning sintaktik-semantik hamda lingvopoetik qirralarini ko'rsatishni maqsad qilganmiz.

Tadqiqot materiali sifatida Shavkat Rahmon she'riy to'plamlaridan ajratib olingan konseptual g'ayriodatiy sintaktik birikmalar va ularning matn ichidagi valentlik (birikuvchanlik) imkoniyatlari asos qilib olindi.

Yuqoridagi fikrlar hamda badiiy matn tahlili shuni ko'rsatadiki, oksyumoron shunchaki ikki so'zning tasodifiy birikuvi emas, balki chuqur o'ylangan estetik va lisoniy hodisadir. Masalan, Shavkat Rahmon she'riyatida mantiqiy nomutanosiblikka asoslangan quyidagi sintaktik qurilmalarni kuzatishimiz mumkin:

Tongda ot yetaklab o'tib borar kim,
***Qop-qora olovday** lovillar yollar.*

Ushbu misrada keltirilgan «**qop-qora olov**» birikmasi o'ziga xos oksyumorondir. Tabiatda olov yorug'lik va issiqlik manbai bo'lib, vizual jihatdan qizil-sariq, sariq yoki olovrang semalariga ega. «Qora» leksemasi esa uning aksidir. Shoir ushbu zidlikni bitta sintaktik qurilmaga birlashtirish orqali tasvirning ichki kuchlanishini va dramatizmini mislsiz darajada oshirgan.

Yana bir yorqin namuna:

Eng baxtiyor lahzalarda ham
*Uning **sokin isyoni** so'nmas.*

Sintaktik jihatdan tobe va hokim so'z munosabatida shakllangan **«sokin isyon»** birikmasi o'z ichiga chuqur lingvopoetik va badiiy mazmunni qamrab oladi.

«Sokinlik» – tinchlik, harakatsizlik semasini anglatsa;

«Isyon» – portlash, to'polon, keskin harakat komponentlaridan iborat.

Ushbu ikki ters holat oddiy mantiqda bir qozonda qaynamaydi. Biroq, shoir shaxsiyati va u yaratgan lirik qahramon ruhiyatida bu ikki tushuncha uyg'unlashib, yangicha semantik modallik kasb etadi. Oksyumoron-

[1] Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 1994. – 292 б.

[2] Абдураҳмонов Ш. Ўзбек бадиий нутқида кулги қўзғатувчи лисоний воситалар: Фил.фан.ном. дисс. Автореф. – Тошкент, 1997. – 23 б.

[3] Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан. док... дисс. – Тошкент, 2009. – 313 б.

ning she'riy matndagi asosiy turlari va funksiyalarini tizimli ravishda quyidagi jadval orqali ko'rsatish mumkin:

Oksyumoristik birikmalarning semantik-funksional tasnifi

T/r	Oksyumoron	Komponent qismlarining semantik zidligi	Lingvopoetik funksiyasi / Estetik maqsad
1.	*Sokin isyon*	Tinchlik (harakatsizlik) // o'ziga xos portlash, shovqin (harakat)	Lirik qahramonning ichki ruhiy muvozanati va to'xtovsiz kurashini ifodalash.
2.	*Sukunat shivirlar*	Mutloq jimlik // ovozli, shovqinli nutq harakati	Tabiat obyektlariga jonlantirish orqali sirli muhit yaratish.
3.	*Qop-qora olov*	Qorong'ulik/harorat // zulmat/ shaffoflik	Tasvirning vizual ta'sirchanligini, ekspressivligini favqulodda oshirish.
4.	*Soqov qichqiriq*	Ovozsizlik, tovushsizlik //Maksimal yuqori balandlikdagi ovoz	Inson ichki dunyosidagi iztirob, dard va chorasizlikning eng yuqori nuqtasini ko'rsatish.

Shoirning yana bir she'riy parchasida oksyumoronning predikativ muvofiqlashuv asosida kelishi ham kuzatiladi:

Odam uxlayapti, Uyg'otmang uni!
Sukunat shivirlar quloqlariga...

Bu yerda «**sukunat shivirlar**» sintaktik birligi subyekt va predikat munosabatidadir. Sukunat har qanday tovushning yo'qligini anglatsa, shivirlash ma'lum bir chastotadagi dinamik ovozli harakatdir. Muallif an'anaviy ifoda usullaridan qochgan holda, o'zining ideostiliga xos bo'lgan konstruksiyalar asosida yangi g'ayriodatiy semantik holat yaratgan.

O'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: Oksyumoron – shunchaki mantiqiy xato emas, balki badiiy matnda individuallik va ta'sirchanlikni ta'minlovchi tizimli sintaktik-stilistik vositadir. Shavkat Rahmon she'riyatida oksyumoronlar lirik qahramonning murakkab ichki dunyosi, ruhiy ziddiyatlari va tabiat hodisalarining noodatiy holatlarini chizishda asosiy stilistik figura vazifasini o'tagan. Oksyumoron an'anaviy lisoniy qoliplarni va tavtologik bir xillikni bartaraf etib, o'zbek tilining leksik-sintaktik birikuvchanlik imkoniyatlarini yanada oshiradi, shuningdek, uni naqadar keng ekanligini isbotlaydi.

Rezyume. Ushbu maqolada oksyumoronning o'ziga xos tomonlari hamda ularning lingvopoetik xususiyatlari, so'zlovchining maqsadini yoritishdagi muhim roli haqida fikrlar yoritilgan.

Резюме. В данной статье рассматриваются специфические аспекты оксюморонов, их лингвопоэтические свойства и важная роль в прояснении намерений говорящего.

Resume. This article discusses the specific aspects of oxymorons, their linguopoetic properties, and their important role in clarifying the speaker's intent.